



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEBRAL  
№25**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
25-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 25**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 25**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Primqulova Iroda Berdimurodovna</b>	
GEOGRAFIYA FANIDAN O‘QUV SAYOHATLARI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI .....	7
<b>2. Bozorova Gulmera Ibodullayevna</b>	
GEOGRAFIYA DARSLARIDA XARITALARDAN FOYDALANISH.....	9



## ГЕОГРАФИЯ

### GEOGRAFIYA FANIDAN O'QUV SAYOHATLARI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Primqulova Iroda Berdimurodovna**  
Sirdaryo viloyati Guliston shahri  
2-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Geografiya va iqtisod fani o'qituvchisi  
Telefon raqami: 934871730

**Annotatsiya.** Geografiya ta'limida fan sayohatlaridan tashqari, dasturdan tashqari (xohlovchi o'quvchilar bilan) uyushtiriladigan sayohatlar ham mavjud. Bunday sayohat mazmunida maktab geografiyasidan tashqari bilimlar ham uchraydi. Tabiiy yoki geografik sayohat o'lka tabiatini, ya'ni o'lkaning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi hamda landshaftlarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar.** O'lkashunoslik, kartografik, topografik, landshaft, relyef, foydali qazilmalar, geologik tuzilish, geografik sayohat.

O'quv sayohatlari maktablarda bahorda va kuzda olib o'tkaziladi. Ularning asosiy qismi tabiatga 1-sayohat ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriladi. Geografiya darslarida o'quv sayohatlarini tashkilot etishning asosiy maqsadi maktabda olingan geografik bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash va maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda kuzatishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda o'quv sayohatlarining asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

1. Joyda reja olish va xaritalar bilan ishlash bo'yicha olingan bilimlarni yanada chuqurlashtirish va dala, ya'ni tabiiy sharoitda topografik va kartografik ishlarini olib borish ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Astronomik bilimlarni yanada chuqurlashtirish va osmon jismlari oy, sayyoralar va yulduzlarni (katta va kichik ayiq, qutb yulduzlarini aniqlash va ularga qarab mo'ljal olish ko'nikmalarini shakllantirish;)

3. Joyning relyefini o'rganish va relyef to'g'risidagi bilimlar va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish hamda dalada mustaqil ravishda relyefning asosiy turlarini o'rganish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bundan tashqari relyef hosil qiluvchi omillarning o'rganish usullari bilan tanishtiradi.

4. Joyning geografik tizimini o'rganish metodikasi bilan tanishtirish.

5. Ob-havoni kuzatish va suv havzalarini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilar ob-havo turlarini aniqlay olishlari lozim.

6. Joyning tuproq qoplamini o'rganish va asosiy tuproq turlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish

7. Joyning o'simlik qoplamini o'rganish usullari bilan tanishtirish. O'simliklarni qavatlariga (yaruslarga) bo'lib o'rganish ko'nikmasini shakllantirish.

8. Hayvonot dunyosini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish.

9. Landshaftlarni ajratish ko'nikmalarini shakllantirish.

10. Korxonani o'rganish ko'nikmasini shakllantirish.

Demak mazkur vazifani bajarish davomida o'quvchilarning olgan geografik bilimlari va ko'nikmalari yanada chuqurlashadi ularda tabiatni va tabiiy geografik jarayonlarni o'rganish va kuzatish tajribalariga va ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa keyingi sinflardagi geografik bilimlarni o'zlashtirishda juda katta zamin yaratadi. O'quv sayohatlari tabiiy geografiya kurslari (5-7) bo'yicha 4marta uyushtiriladi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi bo'yicha 1marta ishlab



chiqarish korxonasi uchun uyushtiriladi. O'quv sayohatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy geografik o'quv sayohatlari;- iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'quv sayohatlari;- o'lkashunoslik o'quv sayohatlari;- maxsus o'quv sayohatlari (geografik, beogeografik, meteorologik va h.k.

Masalan, tabiiy o'quv sayohatini maktab yaqinida joylashgan va o'quvchilar uchun tanish bo'lgan joy tanlanadi ( Botanika bog'i). Hudud quyidagi talablarga javob berishi kerak: jismoniy va geografik nuqtai nazardan xilma-xil bo'lishi; o'rganish uchun qulay relyefga, tuproq va o'simlik qoplaminig xilma-xilligiga va suv havzalarining mavjudligiga ega bo'lishi kerak.

O'lkashunoslik o'quv sayohatlari sifatida esa tarixiy ob'ektlarga, shaharning diqqatga sazovor joylariga amalga oshirilsa bo'ladi.

O'quv sayohatlari turi va o'tkazilish joyini geografiya o'qituvchisi tanlaydi. Tabiiy geografiya o'quv sayohatlarining asosiy maqsadi o'quvchilarni maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi. Tabiiy geografik kuzatishlar olib borish tajribasiga ega bo'lishadi. Iqtisodiy geografik o'quv sayohatlari davomida o'quvchilar ishlab chiqarish jarayonini o'rganishadi va sanoat geografiyasi haqida bilim va ko'nikmalari kengaytiriladi. O'lkashunoslik bo'yicha o'quv sayohatlari davomida o'quvchilar o'lkani tabiati, boyliklari, xo'jaligi, madaniy-tarixiy yodgorliklarini o'rganishadi va tegishli ma'lumotlar yig'iladi.

Ta'limni tashkil qilishning xilma-xil shakllari ichida sayohatning ahamiyati katta. Ekskursiya lotincha-exsichcho-(ekskurro) so'zidan olingan bo'lib, yugurib chiqaman degan ma'noni anglatadi. O'quv sayohat ta'lim tarbiya ishlarining bir turi bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektni uning turgan joyida bevosita ko'rib, idrok etish asosida o'tkaziladi.

O'quv sayohat quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi. 1. Ob'ektni bevosita ko'z bilan ko'rib o'rganiladi va o'zlashtiriladi. 2. Maktab hududidan chiqib ketish talab qilinadi. 3. O'rganilayotgan buyum yoki ob'ektni uning turgan joyida tekshirish talab qilinadi. 4. Birorta fan geografiyadek sayohatga muhtoj emas. 5. O'quv sayohatlariga olib borish geografik tasavvur va tushunchalar hosil qilishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Maktabda o'quv sayohatini uyushtirishda talay muammolar mavjud. Bular: 1. Maktab qat'iy o'quv jadvali asosida ishlaydi. Shu tufayli 40 minutlik dars jarayonida o'quvchilarni sayohatga olib chiqish ancha murakkablik qiladi. Shu tufayli o'quv sayohat uyushtirilishi oldindan rejalashtirilishi zarur. 2. O'quv sayohat darsga qaraganda murakkab bo'lib, uni uyushtirish uchun aksariyat o'qituvchida bilim va ko'nikma yetishmaydi. O'qituvchi dastlab o'quv sayohati qonun qoidalari bilan tanishgan va sayohat bo'yicha adabiyotlarni ko'zda kechirishi kerak. 3. O'quv sayohati uyushtirish uchun zarur asbob-uskunalar yetishmaydi. 4. O'quv sayohati jarayonida tartib intizom saqlash sinfdagidan ko'ra qiyinroq bo'ladi. 5. O'quv sayohatiga borish uchun havo ochiq kunlarini tanlash va h.k.

O'quv sayohatining quruq kitobxonlik va rasmiyatchilikni bartaraf qilishda ahamiyati cheksiz. O'quv sayohati o'quvchilar faoliyatini kuchaytiradi, ularni tetik va xushchaqchaq qiladi. O'quv sayohat o'qituvchi va o'quvchini bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlikni mustahkamlaydi. O'quv sayohati o'quvchilarni turmushga yaqinlashtiradi. Real dunyoni, ob'ektiv hodisalarni aloqasi va o'zaro bog'liqligini ilmiy ravishda tekshirishga o'rgatib ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Eng muhimi o'quv sayohati o'quvchilarni turmush kitobini o'qishga o'rgatadi. O'quv sayohati o'quvchilarda mehnat, ekologik va iqtisodiy tarbiya asoslarini ham shakllantirishga yordam beradi. O'quv sayohati mazmunan quyidagi turlarga bo'linadi. 1. Ko'rsatib borishni maqsad qilib boriladigan sayohat. Bunda obyekt o'quvchilarga tushuntiriladi. Masalan, ohak koniga, g'isht zavodiga sayohat va h.k. 2. Tasviriy sayohat. Sayohatga borilgan joydagi ob'ekt tasvirlanadi. Masalan: daryolar, ko'llar, botqoqliklar va h.k.

3. Tekshirish yoki tadqiqot sayohati. Bunda o'quvchilar tekshirish bilan bog'liq masalalarni o'quvchilar kuchlari yetguncha mustaqil ravishda bajaradilar. Masalan, ekologik muammolar, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi, tannarx, masalalari va hakozi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Baratov P "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" Toshkent, "O'qituvchi" 2002
2. Maksimov N.A. Tabiiy geografiyadan metodik qo'llanma. T., "O'qituvchi". 2001 y.
3. www.ziyouz.com



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA XARITALARDAN FOYDALANISH

**Bozorova Gulmera Ibodullayevna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
5-maktab geografiya-iqtisod bilim  
asoslari fani o'qituvchisi  
Telefon: 903350708. gulmera.  
bozorova.@.mail.ru.

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda geografik obyektlarni geografiya dars jarayonidan o'quvchilarga o'rgatish jarayonida xaritalardan foydalanish ahamiyati yoritildi.

**Kalit so'zlar:** xarita,gorizontal,daraja turi, meridianlar, paralellar,koordinata joy rejasi

Geografiya - eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, minglab yillar davomida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Insoniyatning amaliy ehtiyojlarini qondirgan holda geografik tadqiqotlar ayni paytda doimo qo'yilgan maqsadga erishishdagi jasorat, mardlik, sabot-matonat kabi ko'pgina benazir insoniy sifatlarini namoyon etish uchun zarur bo'lgan keng jabha sifatida ham e'tiborni jalb qilgan. Buyuk dengiz sayyohlari, yangi yerlarni ochish uchun yurish qilgan tadqiqotchi sayyohlar, qutbchilarning kashfiyotlari, geograf olimlarning ekspeditsiyalari azaldan juda katta qiziqish o'yg'otgan. Geografiyaning xizmatlari nafaqat o'tmishda emas, balki hozirgi paytda ham tobora ortib bormoqda. Hozir ham geograflar Antarktikada, qutbyoni va boshqa kam o'rganilgan hududlarda, Dunyo okeanining kenliklari va chuqurliklarida yangi kashfiyotlar qilmoqdalar. Geografik obyektlarni geografiya dars jarayonidan o'quvchilarga o'rgatish jarayonida albatta xaritalardan foydalanamiz.Umumta'lim maktablarida xaritalarni tuzilishini tushutirish o'quvchilarga o'rgatish geografik bilimlarni egallashda muhim o'rin tutadi.

Xarita bu- geografiyaning tilidir .O'quvchilarni geografik xaritalarni tuzilishini tushuntirishga o'rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy rejasi bilan ishlanadi, gorizontallarni o'qish bo'yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to'ri bilan mashq qilinadi, turli xaritalar solishtiriladi, nuqtalarning geografik koordinatalari aniqlanadi, turli masshtablar bilan mashq qilinadi va h.k. xaritalarni tushunishni eng yaxshi yo'li joyni o'rganish va uni xaritada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan xaritagaga o'tish, rejadan geografik xaritagaga o'tish orqali ham geografik xaritalarni tuzilishini tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o'quvchilarni daraja to'ri va geografik xaritalarni tushuntirishga imkon beradi.

Joyda va sinfda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar (yo'nalishlarini aniqlash, masofani o'lchash va ularni chizmada tasvirlash hamda ularni joy rejasiga tushirish) o'quvchilarni geografik xaritalarda haqiqatda borliq va hodisalar tasvirlanganligiga ishonch hosil qilishiga undaydi. Geografik xaritalarni tuzilishini tushunishga faqat joyda olib borilgan ishlargina emas, balki joyning xomaki rejasi bilan ishlash ham yordam beradi. Bunday ishlar o'quv sayohatlari, turistik poxodlarda va joyda amaliy ishlar olib borganda bajariladi.

O'quvchilar yirik masshtabli xaritalarni tuzilishini gorizontallarni o'qish bo'yicha olib boriladigan mashqlarda, topografik xaritalar yordamida relyefni tasvirini tushirish jarayonida joyni rejasini tuzish davomida o'rganishadi. O'z yashash joyini tuzilishi va tashqi joy rejasini o'rganish davomida o'quvchilar asta - sekin yirik va mayda masshtabli xaritalarni tuzilishini anglay boshlashadi. Ular topografik va geografik xaritalarni solishtirish asosida joy rejasi va geografik xarita o'rtasidagi farqlarni tushuna boshlashadi.O'quvchilar kartografik andozalarni (proyeksiyalarni) turlarini o'rganish davomida geografik xaritalardagi xatoliklar va ularning miqyosini tushuna boshlashadi, xatoliklarni qanday sodir bo'lishini o'quvchilar tushunishi uchun globusdagi va ma'lum bir xaritada borliqni o'lchami solishtiriladi. Masalan, Chukotka yarim oroli yoki Grenlandiya orolini globusda va xaritada tasvirini solishtiradi. Ularning tasviri xaritada globusdagiga ko'ra kattaroq tasvirlangan, ana shu farqlarning asosiy sababi xaritalardagi xatoliklar ekanligi tushuntiriladi. Masalan, globus Yerning kichiklashtirilgan modeli hisoblanadi, shuning uchun unda geografik borliq xatosiz tasvirlanadi, xarita esa globusni tekislikka yoyish natijasida hosil bo'lgan, shuning uchun uning chekka qismlarida xatoliklar katta bo'lishi tushuntiriladi. kattayishi darajalari bilan tanishishi lozim. Buning uchun avval yirik, o'rta va mayda masshtablar haqida tushunchalarga ega bo'lmoqlari lozim. Shundan so'ng har xil geografik borliqni, masalan Chorvoq suv omborini kengligi va uzunligini aniqlashlari



lozim. O'quvchilar geografik xaritada masofani taxminan aniqlashlari uchun ayrim geografik borliqni uzunligini aniqlab uning yordamida kerakli masofani topishlari mumkin. Masalan, Saxalin orolini uzunligi 1000 km, shundan foydalanib Osiyodagi joylarni uzunligini topish mumkin. Biror joyni uzunligini topish uchun Saxalin orolini hayolan joylashtiriladi va masofa aniqlanadi. Masalan, uzunligi aniqlanadigan joygacha 2 ta Saxalin oroli sig'sa, demak uning uzunligi 2000 km ekan. Bundan tashqari daraja to'ridan foydalanib ham masofani o'lchashni o'quvchilar o'rganmog'i lozim. Buning uchun 10 yoyning uzunligini bilish kifoya. Meridian bo'yicha 10 yoyning o'rtacha uzunligi 111 km. Agar ikki nuqta orasidagi masofa 100 bo'lsa u km da quyidagicha ifodalanadi:  $10 \cdot 111 = 1110$  km. O'quvchilar geografiya darslariga xaritalardan foydalanib ob'yektlarning joylashgan o'rinlarini bilib oladilarsa eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi. . Qayta bog'lanish nima? Inson hayoti davomida doim o'zgaralar bilan muloqotga kirishib, atrofdagilarning o'ziga nisbatan munosabatiga tayanib yashaydi. O'z navbatida, o'zi ham atrofdagilar haqida fikr yuritadi, ularning hatti- harakatlarini baholaydi. Ko'pchilik o'zgaralarning fikrini o'ta muhim hisoblaydi, bu fikrlarni inobatga olish zarur deb biladi. Dars jarayonida asosan, o'quvchining shaxsiy fikriga ko'proq quloq tutish kerak. Chunki, mustaqil fikr bildirish orqali, u o'z tushunchalarini ifodalaydi.

Har bir pedagog o'zi ta'lim berayotgan o'quvchida jamiyatning ertanggi kunini ko'radi. Bu degani jamiyatning ertanggi hayotini ustozlar, pedagoglar belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, geografik xaritalar qaysi turda bo'lmasin o'quvchini mustaqil fikrlashga, aqlinipeshlashga, amaliyotda qo'llay olishga o'rgatadi. Geografik xaritalar bilan ishlashni tashkil etganda o'quvchining yosh xususiyati, sa'viyasi vaqtida hisobga olinadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qurbonnoyozov R «Geografiya o'qitish metodikasi» Geografiya ta'limi uchun o'quv qo'llanma. Urganch .2018y
2. Ochilov.M»Yangi pedagogik texnologiyalar . Qarshi .Nasaf.2015.y
3. www.Ziyonet.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(25-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000